

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
имени Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ

1931
TDSU
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ГЕОДЕЗИЧЕСКАЯ
ИССЛЕДОВАНИЯ
И ТЕХНОЛОГИИ

1931
SLOM KARIMOV NOMIDDI
TDSU
TOSHKENT DAVLAT TEKNIKA UNIVERSITETI

1955
TDSU
TOSHKENT DAVLAT
TEKNIKA UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT
AKHITTEKUTA-QURILISH
UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI
1991

TJU
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustii majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbas Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbanova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakarlarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсупов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiysi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldasbayevich	
"Intellektual multk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtaсидagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnudbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozoridagi rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili.....	131
Ismoilov I.B., Qayumov J.A., Ismoilov F.B., Qo'idoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi.....	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabaev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budget siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari tahlili	216
Xatamov Nurbek Ochiliyevich	
O'zbekiston turizm sohasida innovatsion faoliyotni oshirishning shakllari	222
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o'rganilishi	227
Kamolova Mohinur Iskandarovna	
Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati.....	239
Suyunov Otabek Shuxrat o'g'li	



Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики Бозорова Ирина Жуманазаровна	242
Mahalliy lashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida) Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	247
Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	254
Aktualnye voprosy finansirovaniya investitsionnykh proektov Шомуродов Равшан Турсункулович. Раширова Дилфузা Ганиевна	259
Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li	266
Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni Raxmatov Aziz Tolipovich	276
Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi	280
Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	286
Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzallikkleri Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	290
Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi Muxitdinov Shuxrat Ziyaviddinovich	295
Raqamli iqtisodiy sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari Bobomuratov Imomkul Islamovich	299
Mehnat resurslaridan foidalanishning xususiyatlari va tashkil etish mezonlari Kobilova Zebo Bobokulovna	306
Zelёnoe budjetyirovaniye kak instrument povysheniya effektivnosti upravleniya gosudarstvennymi finansami Наимов Шохрух Шарофиддинович	311
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	318
Oсобенности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья Маджидов Абдинаби Аманович	324
O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi" dagi o'rnini yaxshilash choralari Umarova Durdona Abdumannabovna	330



O'ZBEKISTONNING BMT "ELEKTRON HUKUMATNI RIVOJLANTIRISH INDEKSI" Dagi O'RNNINI YAXSHILASH CHORALARI

Umarova Durdona Abdumannabovna

Toshkent shahridagi xalqaro Vestminster universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

Email: durdonaumarova90@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada BMTning "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"da O'zbekistonning o'rnnini yaxshilash masalalari tahlil qilingan. "O'zbekiston-2030" strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-308-son qarori belgilangan vazifalar doirasida elektron xizmatlarni takomillashtirish va Inson kapitali indeksi ko'rsatkichlarini oshirish vazifalari belgilangan. Shunday qilib, onlayn xizmatlar indeksida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, BMTning navbatdagi hisobotiga tayyorgarlik ko'rish hamda Inson kapitali indeksidagi ko'rsatkichlarni xalqaro metodologiyaga muvofiq yaxshilash choralarini ko'rish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: elektron hukumat, BMT indeksi, raqamli xizmatlar, onlayn xizmatlar indeksi, raqamli iqtisodiyot, raqamli O'zbekiston, Inson kapitali indeksi, ta'lif statistikasi, raqamli transformatsiya, xalqaro reyting.

Abstract: This article examines the challenges and opportunities for improving Uzbekistan's ranking in the United Nations E-Government Development Index (EGDI). It considers the objectives set in the "Uzbekistan – 2030" Strategy and Presidential Decree No. PD-308 of September 14, 2023, which outlines tasks for the development of online services and the strengthening of Human Capital Index indicators. The study emphasizes the importance of addressing weaknesses in the Online Services Index, preparing effectively for the next UN assessment, and aligning Human Capital Index data with international standards and methodologies.

Keywords: E-Government, UN index, digital services, Online Services Index, digital economy, Digital Uzbekistan, human capital index, education statistics, digital transformation, ranking.

Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы улучшения позиции Узбекистана в «Индексе развития электронного правительства» ООН. В рамках задач, определённых Стратегией «Узбекистан-2030» и Постановлением Президента Республики Узбекистан от 14 сентября 2023 года №ПК-308, обозначены главные меры по совершенствованию электронных услуг и повышению показателей индекса человеческого капитала. Таким образом, обоснована необходимость устранения выявленных недостатков в индексе онлайн-услуг, подготовки к очередному докладу ООН и принятия мер по улучшению показателей индекса человеческого капитала в соответствии с международной методологией.

Ключевые слова: Электронное правительство, индекс ООН, цифровые услуги, индекс онлайн-сервисов, цифровая экономика, цифровой Узбекистан, индекс человеческого капитала, образовательная статистика, цифровая трансформация, международный рейтинг.

KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va elektron hukumat tizimini rivojlantirish O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalişlaridan biriga aylandi. "O'zbekiston-2030" strategiyasida mamlakatimizni mintaqaviy "IT-Hub"ga aylantirish va BMTning "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"da ilk 30 davlat qatoriga kiritish maqsadi belgilangan. Bu esa elektron xizmatlar sifatini oshirish hamda Inson kapitali ko'rsatkichlarini yuksaltirishni taqozo etadi. Ushbu maqolada O'zbekistonning mazkur indeksdagi o'rnnini yaxshilash uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar bayon etilgan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi” (EGDI) dunyo mamlakatlarda raqamli xizmatlar, telekommunikasiya infratuzilmasi va Inson kapitali darajasini baholashda muhim xalqaro mezon hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda EGDIda davlatlarning raqamli transformasiya jarayonini aks ettiruvchi strategik ko'rsatkich sifatida ta'riflanadi. Indeks tarkibida onlayn xizmatlar indeksi (Online Services Index – OSI), telekommunikasiya infratuzilmasi indeksi (Telecommunication Infrastructure Index – TII) va Inson kapitali indeksi (Human Capital Index – HCl) kabi asosiy qismlar mavjud bo'lib, ular orqali davlat xizmatlari samaradorligi, aholining raqamli imkoniyatlari va ta'limga darajasi baholanadi¹.

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda EGDIda xalqaro raqobatbardoshlikni baholashda muhim ko'rsatkich sifatida e'tirof etilmoqda. 2024-yilgi BMT hisobotiga ko'ra esa, O'zbekiston ilk bor “Very High EGDIda” toifasiga kiritilib, 193 mamlakat orasidan 63-o'rinni egalladi².

Bu natija elektron xizmatlarni kengaytirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va davlat dasturlari samaradorligini namoyon etdi. Shu bilan birga, ayrim ilmiy manbalarda onlayn xizmatlar indeksi ko'rsatkichlari orasida elektron ishtirok (E-Participation Index) hamda raqamli inklyuzivlikka alohida e'tibor qaratilishi zarurligi ta'kidlangan³.

Akademik va amaliy manbalarda ayniqsa ma'lumotlarni xalqaro metodologiya bilan uyg'unlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, YUNESKO statistik ma'lumotlarini milliy ko'rsatkichlar bilan muvofiqlashtirib borish zarurligi urg'u qilingan⁴.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonning BMTning “Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi” bo'yicha xalqaro reytingdagi o'rnini tahlil qilish va uni yaxshilash yo'nalishlarini asoslash maqsad qilindi. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

Hujjatlar tahlili (document analysis): BMTning “E-Government Survey” hisobotlari (2018, 2020, 2022, 2024-yillar) asosida O'zbekistonning EGDIda ko'rsatkichlari tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158 va PQ-308-sonli qarorlari, “O'zbekiston–2030” strategiyasi hamda “Raqamli O'zbekiston – 2030” dasturi o'rganildi.

Qiyosiy tahlil (comparative analysis): O'zbekistonning EGDIda ko'rsatkichlari mos iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega davlatlar bilan taqqoslandi. Onlayn xizmatlar indeksi (OSI), telekommunikatsiya infratuzilmasi indeksi (TII) va Inson kapitali indeksi (HCl) bo'yicha kuchli va zaif jihatlar aniqlandi.

Statistik tahlil (statistical analysis): YUNESKO, BMT va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida ta'limga qamrovi (Gross Enrollment Ratio) va kutilyotgan ta'limga davomiyligi (Expected Years of Schooling) ko'rsatkichlari qayta hisoblandi. Milliy va xalqaro ma'lumotlar o'rtaqidagi nomuvofiqliklar aniqlanib, ularni uyg'unlashtirish zarurati asoslab berildi.

Sistemali yondashuv (system approach): Elektron hukumat indeksi tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqildi. Inson kapitali ko'rsatkichlari bilan raqamli xizmatlar samaradorligi o'rtaqidagi uzviy aloqalar tahlil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son⁵li Farmonida 57-maqsad sifatida mamlakatimizni mintaqaviy “IT-Hub”ga aylantirish hamda 2030-yilgacha BMTning “Elektron hukumat tadqiqoti” hisobotida Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi bo'yicha ilk 30 davlat qatoriga kiritish vazifasi belgilangan.

Shuningdek, 2023-yil 14-sentyabrdagi Prezidentning PQ-308-sonli qarorida ham mamlakatimizni mazkur hisobotdagi o'rnini yaxshilash va 2030-yilgacha ilk 30likka kiritish asosiy vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

Ushbu qarorga muvofiq, “Raqamli O'zbekiston–2030” strategiyasini amalga oshirish bo'yicha reytingdagi O'zbekistonning o'rnini yaxshilashga qaratilgan ishlardan etilishi va muvofiqlashtirilishini ta'minlaydi.

¹ <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/About/Overview/-E-Government-Development-Index>

² <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-2024>

³ OECD (2022). Digital Government Index: 2022 Results. Paris: OECD Publishing

⁴ UNESCO Institute for Statistics (2023). Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO

⁵ <https://lex.uz/docs/-6600413>



1-rasm. Onlayn xizmatlar indeksi (OSI) reyting metodologiyasi talablari bo'yicha o'tkazilgan o'rganish natijasilarini


Shuningdek, mazkur qaror doirasida "Raqamli hukumat loyiha ofisi" faoliyati yo'lga qo'yilib, elektron hukumat tizimini rivojlantirish bo'yicha tahlillar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan choralar muntazam ko'rib chiqib borilmoqda.

Onlayn xizmatlar indeksi (OSI) baholash tizimi beshta subindeksdan tashkil topgan bo'lib: institutsional tuzilma (IF), xizmat ko'rsatish (SP), kontent bilan ta'minlash (SP), texnologiyalar (TEC) va elektron ishtirok (EPI) sohalarini qamrab oladi. OSI har bir subindeks uchun me'yorashtirilgan qiymatlar asosida hisoblanadi va onlayn xizmatlarni yetkazib berish samaradorligini keng qamrovda baholash imkonini beradi.

Ushbu indeks murakkab omillar asosida shakllanadigan ko'rsatkichlardan iborat. BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti har ikki yilda volontyorlar yordamida dastlabki ma'lumotlarni to'plab, BMT tuzilmasiga kiruvchi tadqiqot institutlari tomonidan chuqr tahlil qilinadi. Bu doirada 165 ta ko'rsatkich qamrab olinib, onlayn xizmatlarning aholi uchun qulayligi va foydalanish imkoniyatlari baholanadi.

BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti har ikki yilda barcha mamlakatlarga navbatdagi hisobotni tayyorlash uchun savolnoma yuborib, uni to'ldirishni so'raydi. Qayd etish joizki, reyting ko'rsatkichlari kabi savolnoma ham yil sayin murakkablashib, unda inklyuzivlik, qishloq aholisining raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari, raqamli ko'nigmalar va elektron ishtirok masalalariga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

2026-yilgi savolnoma 2024-yildagisidan farqli ravishda savollar sonining 51 tadan 62 taga ko'payishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, "Raqamli hukumat loyiha ofisi" tomonidan Inson kapitali indeksi ko'rsatkichlarini yaxshilash yuzasidan amaliy ishlar olib borildi (2-rasm).



2-rasm. Ta'limning yalpi qamrov darajasi (Gross Enrollment Ratio) bo'yicha O'zbekistonning ko'rsatkichisi (YUNESKO ma'lumotlari)



Xususan, indeks doirasida baholanadigan “Kutilayotgan ta’lim davomiyligi” subindeksi (Expected Years of Schooling) mamlakatimizda ta’lim sohasi rivojlanishini xalqaro darajada namoyon etishda muhim ahamiyatga ega (3-rasm).

GRE in Uzbekistan, 2023 (without 23 age group)			
Age group	Population 7-22	Number of enrolled students	Education Level
7	719 858	702 445	Primary - Lower Secondary Education level
8	703 156	635 048	
9	663 133	643 807	
10	634 883	608 494	
11	622 531	608 799	
12	636 637	622 185	
13	649 821	633 331	
14	642 128	614 164	
15	601 881	583 928	
16	546 956	541 143	Upper Secondary Education level
17	522 629	472 560	
18	529 441	165 452	
19	496 495	321 740	
20	518 538	129 831	
21	497 836	113 701	
22	509 895	95 175	Tertiary enrolled students regardless of age
		427 124	
Total	9 495 818	7 918 927	
	GRE	83,39	

3-rasm. Ta’limning yalpi qamrov darajasi (Gross Enrollment Ratio) bo'yicha O'zbekiston ko'rsatkichlari

Biroq, so'nggi yillarda ushbu ko'rsatkich bo'yicha YUNESKO statistik ma'lumotlari bilan milliy ma'lumotlar o'rta nomuvofiqliklar kuzatilgan. Jumladan, boshlang'ich ta'limgacha bo'lgan majburiy bir yillik tayyorlov jarayoni YUNESKOning xalqaro ta'lim klassifikatori — ISCED (International Standard Classification of Education) bo'yicha "0" darajaga to'g'ri keladi. Shu sababli mamlakatimizda joriy etilgan ushbu tayyorlov yili "Kutilayotgan ta'lim davomiyligi" hisobida inobatga olinmagan.

Bundan tashqari, Inson kapitali indeksi doirasida baholanadigan yana bir muhim subindeksi, ta'limga yalpi qamrov darajasi (Gross Enrollment Ratio) bo'yicha O'zbekistonning ko'rsatkichi 78,88 foiz etib qayd etilgan (qarang: 2-rasm). Ammo ushbu ko'rsatkich bo'yicha YUNESKO ma'lumotlari bilan milliy statistika o'rta nomuvofiqliklar mavjud. Xususan, YUNESKO metodologiyasi asosida xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatimiz ko'rsatkichlarini hisoblashda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yilgan.

YUNESKO ta'rificha, "Gross Enrollment Ratio" bu maktabgacha, umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalariga yoshiga qaramasdan qabul qilingan barcha talabalar sonining o'qish yoshidagi aholi soniga nisbatli hisoblanadi. Xususan, oliy ta'lim qamrovi rasmiy ravishda umumiy o'rta ta'limdan keyingi besh yillik yosh guruhi (masalan, 18-22 yosh) asosida aniqlanadi.

O'zbekistonning rasmiy ko'rsatkichi ta'limga yalpi qamrov darajasi bo'yicha 78,88 foiz etib qayd etilgan. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida YUNESKO metodologiyasiga to'liq muvofiq qayta hisoblanganda, mamlakatimiz ko'rsatkichi 83,39 foizni tashkil etadi (qarang: 3-rasm). Bu esa milliy va xalqaro ma'lumotlar o'rtaqidagi farqni bartaraf etish va hisob-kitoblarni yagona metodologiya asosida muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar O'zbekistonning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksidagi o'rnini yanada yaxshilash uchun bir qator tizimli choralarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bois quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, Raqamli texnologiyalar vazirligi boshqa mas'ul idoralar bilan hamkorlikda Onlayn xizmatlar indeksida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq harakatlarni rejasini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi zarur.



Ikkinchidan, BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti yuborgan savolnomalar 2026-yildagi baholash jarayonida rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida to'liq va batafsil to'ldirilishi ta'minlanishi lozim.

Uchinchidan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtirish komissiyasi huzurida elektron hukumat indeksi bo'yicha mavjud muammo va kamchiliklarni muhokama qilish hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan muntazam yig'ilishlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

To'tinchidan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Milliy statistika qo'mitasi YUNESKO vakillari bilan hamkorlikda ta'lim statistikasi bo'yicha rasmiy ma'lumotlarni uyg'unlashtirish, hisob-kitoblardagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq choralar ko'rishi zarur.

Beshinchidan, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Milliy statistika qo'mitasi Inson kapitali indeksida baholanadigan ta'lim qamrovi ko'rsatkichlarini (Gross Enrollment Ratio) xalqaro metodologiya asosida qayta hisoblab, to'g'ri aks ettirilishini ta'minlashi lozim.

Ushbu chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi mamlakatimizning elektron hukumat sohasidagi xalqaro reytinglardagi o'rnini sezilarli darajada yaxshilaydi. Jumladan:

YUNESKO ma'lumotlar bazalarida milliy ko'rsatkichlar to'liq aks ettirilishiga erishiladi;

"Kutilayotgan ta'lim davomiyligi" ko'rsatkichi 11,99 yildan 14 yilgacha, "Ta'limga yalpi qamrov" esa 78,88 foizdan 83,39 foizgacha ko'tarilishi mumkin.

O'zbekistonning BMT indeksidagi pozitsiyasi yaxshilanib, xalqaro maydonda raqobatbardoshligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. United Nations. United Nations E-Government Survey 2024: Leveraging Digital Government for Sustainable Development. New York: United Nations, 2024.
2. United Nations. E-Government Survey 2022: The Future of Digital Government. New York: United Nations, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 11 sentyabr 2023 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Elektron hukumat tadqiqoti" hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-308-son qarori. 14 sentyabr 2023 yil.
5. UNESCO Institute for Statistics (UIS). Global Education Monitoring Data. <https://data UIS.unesco.org>
6. OECD. Digital Government Index: 2023 Report. Paris: OECD Publishing, 2023.
7. Al-Khoury, A. M. E-Government Strategies: The Case of the United Arab Emirates (UAE). European Journal of ePractice, 2012.
8. Fang, Z. E-Government in Digital Era: Concept, Practice, and Development. International Journal of the Computer, the Internet and Management, Vol. 10, No. 2, 2002.
9. Heeks, R. Implementing and Managing eGovernment: An International Text. London: SAGE Publications, 2006.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100